

## 1-dars. Mavzu: O'ZBEKISTONDA DAVLAT TILI VA BOSHQA TILLARNING RIVOJI

### DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

<b>Mavzu:</b>	<b>O'ZBEKISTONDA DAVLAT TILI VA BOSHQA TILLARNING RIVOJI</b>
<b>Mavzuga oid tayanch tushunchalar:</b>	Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, dunyo tillari tizimi, davlat tili.
<b>Maqsad va vazifalar:</b>	<p><b>Maqsadlar:</b></p> <p><i>Ta`limiy:</i> O'quvchilarga O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi Qonuning ahamiyatini va undagi ayrim moddalarning mohiyatini tushuntirish</p> <p><i>Tarbiyaviy:</i> O'quvchilarda ona tiliga muhabbat, til o'rganishga qiziqish uyg'otish.</p> <p><i>Rivojlantiruvchi:</i> O'quvchilarda mustaqil fikrlash, mushohada yuritish ko'nikmalarini shakllantirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish;</li> <li>- ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kengaytirishga erishish;</li> <li>- mavzuga oid berilgan savollarni o'quvchilar tomonidan guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda berilgan topshiriqlarni qay darajada o'zlashtirganliklarini nazorat qilish;</li> <li>- ularning bilimini baholash.</li> </ul>
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b>	<p><b>Metod:</b> suhbat, tushuntirish;</p> <p><b>Usul:</b> induktiv ta'lim;</p> <p><b>Shakl:</b> og'zaki va yozma bayon;</p> <p><b>Vosita:</b> «Ona tili» darsligi yoki elektron darslik, "O'zbekiston Respublikasi Davlat tili to'g'risidagi" Qonuni;</p> <p><b>Nazorat:</b> savol-javob;</p> <p><b>Baholash:</b> 5 balli tizim asosida</p>
<b>O'quv jarayoniga oid kompetensiyalar</b>	<p><b>Tayanch kompetensiya elementlari:</b> axborot bilan ishslash komponentsiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi, Milliy va umummadaniy kompetensiya.</p> <p><b>Fanga oid kompetensiya elementlari:</b> <i>Nutqiy kompetensiya elementlari</i> (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;</li> <li>- gapda so'zlarni o'zaro bog'lanishi va ma'lum bir vazifani bajarishini bilib oladi.</li> </ul> <p><b>Lingvistik kompetensiya elementlari:</b></p>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>-til-ijtimoiy hodisa ekanligini sharhlay oladi;</li> <li>-mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi;</li> <li>-davlat tilining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o’rnini tushunib yetadi.</li> </ul>
<b>Kutiladigan natijalar:</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchi faolligini oshiradi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchi baholanadi. O'quvchilar tomonidan darsni mustaqil o'rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollargajavob berishga o'rgatadi, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi.</p> <p><b>O'quvchi:</b> til va nutq, ularning bir-biriga bog'liqligi va zidligi yuzasidan yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlashni o'rganadilar, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.</p>
<b>Kelgusi rejalar:</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p><b>O'quvchi:</b> Mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. O'rganilgan mavzu asosida qo'shimcha materiallar izlaydi, ularni o'rganadi. Do'stona muhitda, hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi.</p>

### Darsning borishi:

O'qituvchi darsni o'quvchilarga quyidagi savollarni berish bilan boshlaydi:

- 1. O'zbek tili deganda qanday tilni tushunasiz?**
- 2.O'zbekistonda qaysi til Davlat tili? Davlat tili deganda nimani tushunasiz?**
- 3.O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?**

O'qituvchi o'quvchilardan savollarga aniq va lo'nda javoblar olgach, ularning fikrlarini umumlashtirib, to'ldirib quyidagilarni bayon etadi:

1989-yil 21 -oktabrda milliy uyg'onishning ilk amaliy samarasini sifatida "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. Davlat tomonidan himoyaga olingan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda, rasmiy hujjatlarni yuritishda qo'llanadigan til **davlat tili** deyiladi. Qonun natijasi o'laroq o'zbek tilining ko'p yillar davomida top-talgan go'zalligi, jozibasi, haq-huquqlari tiklana boshlandi, o'zbek tilini butun choralar bilan rivojlantirish davlat ishiga aylandi, respublikada o'zbek tilining ijtimoiy mavqeyi tiklandi, uni qo'llash doirasi kengaydi va o'rganish izchillik bilan yo'lga qo'yildi.

Qonun Sizga o'zbek tilining fonetika, leksikologiya, so'z yasalishi, morfologiya va sintaksisiga oid nazariy masalalarni chuqur o'rganish, o'zbek tilida to'g'ri, aniq, ravon, sodda, izchil va mantiqli yozma hamda og'zaki nutq tuzish ko'nikmalarini egallash vazifasini qo'yadi.

O'qituvchi suhbatidan so'ng darslikdagi 1 -mashqqa ko'ra O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonunidan olingan moddalar yuzasidan babs o'tkaziladi.

Keyin o'quvchilar bilan 2-mashq hajariladi. O'quvchilar "Tilni bilish dilni bilishga yo'l ochar" mavzusida main tuzadilar.

O'qituvchi ularning fikriga qo'shimcha tarzda Avaz O'tarning "Til" she'rini o'qib beradi hamda tuzilgan matn va she'r asosida til o'rganishning ahamiyatini tushuntiradi.

Ko'p tilni bilish kishining dunyoqaraihini, bilim doirasini kengaytiradi, turli xalqlarningtarixi, siyosati, iqtisodi, geograflyasi, madaniyati, san'ati va yashash tarzini mukammal o'rganish imkonini beradi.

Tillarkelib chiqishi asosiga ko'ra qarindosh va qarindosh bo'lмаган tillarga bo'linadi. Bir bobo til asosida shakllangan tillar qarindosh tillar hisoblanadi. Ular fonetik, lug'aviy grammatik jihatdan o'xshash bo'ladi. Qarindosh til sohiblari tarjimonsiz bir -birlarini tushunadilar. Turli bobo tillar asosida shakllangan, fonetik, lug'aviy, grammatik jihatdan noo'xshash tillar esa qarindosh bo'lмаган tillar hisoblanadi.

Xuddi shularni uqtirish uchim o'quvchilar bilan mashq doirasida quyidagi savollar asosida suhbal uyushliiiladi:

1.Qanday tillar qarindosh tillar hisoblanadi?

2. Qarindosh bo'lмаган tillar deganda qanday tillarni tushunasiz? So'ngra mashqda berilgan tillar o'quvchilar faolligida quyidagi chagruuhlanadi:

**O'zbek tiliga qarindosh tillar**  
*qozoq, qirg'iz, uyg'ur, qoraqalpoq, tatar*

**O'zbek tiliga qarindosh bo`lмаган tillar**  
*arab, ingliz, fransuz, xitoy, hind*

Hozirda ona tili bilan bir qatorda rus tili, dunyo tillari orasida mashhur bo'lgan ingliz tilini o'rganish davr talabiga aylandi.

Mashqni bajarishda o'qituvchi "Kim topqir va chaqqon?" nomli musobaqa o'yinidan foydalanishi mumkin. Shundan so'ng suhbat yana davom ettiriladi. O'zbek tili bilan bir qatorda ko'rsatilgan tillar qadimgi turkiy bobo til asosida shakllangan, Fonctik, lug'aviy, grammatik o'xshashligi bois qarindoshlik kasb etishini *til* (*o'zbek, qoraqalpoq, qirg'iz, uyg'ur tillari*), *dil* (*azarbayjon, turkman, tillari*), *tel* (*tatar tili*); *tuz* (*o'zbek, qirg'iz, uyg'ur tillari*), *duz* (*qoraqalpoq, ozarbayjon, turkman tillari*) kabi so'zlar qiyosi asosida tushuntiradi.

Keyingi darslarda 5-sinfda "Fonetlka", jumladan, "Unli tovushlar" mavzusi yuzasidan takrorlash va o'rganilganlarni mustahkamlash darsi bo'lishini ta'kidlab o'rganilganlarni takroriy o'qish va 5-mashq uyga vazifa sifatida topshiriladi.

Mashq javobi: 1) *qoraqalpoq*; 2) *boshqird*; 3) *qozoq*; 4) *qirg'iz*; 5) *uyg'ur*.

## 2-dars. UNLI TOVUSHLAR

### DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

<b>Mavzu:</b>	<b>UNLI TOVUSHLAR</b>
<b>Mavzuga oid tayanch tushunchalar:</b>	Fonetika,tovushlar,unli tovushlar, <i>a,o,i,e,o',u</i>
<b>Maqsad va vazifalar:</b>	<p><b>Maqsadlar:</b>  <i>Ta`limiy:</i> O'quvchilarning unli tovushlar yuzasidan olgan nazariy bilimlarini amaliy mashqlar asosida mustahkamlash;  <i>Tarbiyaviy:</i> O'quvchilarga onaning ulug'lagini uqtirish,ularda mehnatga, hunar o'rganishga qiziqish uyg'otish;  <i>Rivojlantiruvchi :</i> O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish;</li> <li>-ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish,kengaytirishga erishish;</li> <li>- mavzuga oid berilgan savollarni o'quvchilar tomonidan guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda berilgan topshiriqlarni qay darajada o'zlashtirganliklarini nazorat qilish;</li> <li>- ularning bilimini baholash.</li> </ul>
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b>	<p><b>Metod:</b> suhbat,tushuntirish;</p> <p><b>Usul:</b> induktiv ta'lif;</p> <p><b>Shakl:</b> og'zaki va yozma bayon;</p> <p><b>Vosita:</b> «Ona tili»darsligi yoki elektron darslik,</p> <p><b>Nazorat:</b> savol-javob;</p> <p><b>Baholash:</b> 5 balli tizim asosida</p>
<b>O'quv jarayoniga oid kompetensiyalar</b>	<p><b>Tayanch kompetensiya elementlari:</b>      axborot bilan ishslash komponentensiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, Milliy va umummadaniy kompetensiya.</p> <p><b>Fanga oid kompetensiya elementlari:</b>  <i>Nutqiy kompetensiya elementlari</i> (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish,yozish):      -o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;      -gapda so'zlarni o'zaro bog'lanishi va ma'lum bir vazifani bajarishini bilib oladi.</p> <p><b>Lingvistik kompetensiya elementlari:</b>      -fonetika bo'limi haqidagi bilimlarini umumlashtirib oladi;      -mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi;      -tovushlar tasnifini amalga oshira oladi.</p>

<b>Kutiladigan natijalar:</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchi faolligini oshiradi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchi baholanadi. O'quvchilar tomonidan darsni mustaqil o'rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollargajavob berishga o'rgatadi, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlanadiradi.</p> <p><b>O'quvchi:</b> til va nutq, ularning bir-biriga bog'liqligi va zidligi yuzasidan yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishslashni o'rganadilar, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.</p>
<b>Kelgusi rejalar:</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishslash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p><b>O'quvchi:</b> Mustaqil ishslashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. O'rganilgan mavzu asosida qo'shimcha materiallar izlaydi, ularni o'rganadi. Do'stona muhitda, hamkorlikda ishslash ko'nikmasi shakllanadi.</p>

### Darsning borishi:

Dars o'qituvchi tomonidan 1-, 2-savol va topshiriqlarga ijodiy yondashgan holda, quyidagi savollar asosida unli tovushlar haqida o'rganilganlarni takrorlash bilan boshlanadi:

1. Nutq tovushlari necha turli bo'ladi?
2. Unli tovushlar deb qanday tovushlarga aytildi?
3. O'zbek tilida nechta unli tovush bor? Ularni aytинг.
4. O'zbek tilidagi unli tovushlar qanday tavsifga ega?

Unli tovushlarga oid nazariy bilimlar takrorlangach, o'quvchilar 3-topshiriqqa ko'ra bilish, tuzish, o'lka, erk, olam so'zlari tarkibidagi unli tovushlarni aniqlaydilar va o'qituvchining quyidagi savollari asosida ularni tahlil qiladilar:

1. So'zlarda qaysi unli tovushlar qo'llangan?
2. Ularning talaffuzi qanday?
3. Unli tovushlarning o'zgarishi so'zga qanday ta'sir qiladi?

6-mashqda berilgan so'zlardagi nuqtalar o'rniga unli tovushlarni o'ydirlish asosida o'quvchilarda unli tovushlarni to'g'ri qo'llash ko'nikmasi shakllantiriladi va unlilar imlosiga doir bilimlari mustahkamlanadi:

*Namuna: Mana quyosh ko'tarildi. Ona haykali, yog'dular ichida oftobday porlab turibdi. (E. Oxunova)*

Mashq matni asosida dunyoda eng aziz va eng ulug' inson ona ekanligi, onani hurmat qilish, e'zozlash va qadrlash har bir farzand uchun ham qarz, ham farzligi uqtiriladi.

7-mashqni bajartirish asosida o'quvchilarning unli tovushlarga oid bilimlari yana bir bora mustahkamlanadi, chunki mashqda berilgan maqollardagi barcha unli tovushlarning talaffuzi va imlosi tahlil qilinadi hamda maqollar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Mavzuga oid 8-mashqni "Kim topqir va zukko" o'yini asosida bajartirish maqsadga muvofiq. O'yin shartiga ko'ra, o'quvchilar tomonidan so'zlardagi nuqtalar o'rniga unli tovushlar to'g'ri qo'yilishi, so'zlar hosil qilinishi va ularni qatnashtirib gaplar tuzilishi lozim. O'yin yakunida o'quvchilar olgan o'rinalariga ko'ra baholanadilar.. O'yin shartini tushuntiriladi va mashqni bajarishga oid namuna ko'rsatiladi: *zar, zir, zo'r, zor-zor, zo'r kabi.* Zar qadrini *zargar biladi.* (*Maqol*) *Zir titradi.* *Nimani gllsang xor, shungabo'lasan zor.* (*Maqol*) *Uzor-zor yig'ladi.* *Zo'rغا ham zo'rdek balo bordir.* (*Maqol*)

Mashq shartiga ijodiy tarzda yondashib mazkur so`zlarning lug'aviyma'nosini izohlanadi, ma'noviy farqi tushuntiriladi, bu holat unli tovushlargabog'liqligini ta'kidlanadi.

9-mashqni ham shu tarzda bajartiriladi, quyldagi tog'ri javobni topish mumkin: *Tili shirinning do'sti ko'p.*

Undosh tovushlar yuzasidan o'rganilganlarni takrorlash va 10 mashqni bajarish uy vazifasi sifatida topshiriladl

### **3-dars. UNDOSH TOVUSHLAR**

#### **DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI**

<b>Mavzu:</b>	<b>UNDOSH TOVUSHLAR</b>
<b>Mavzuga oid tayanch tushunchalar:</b>	Fonetika,tovushlar,undosh tovushlar,lab undoshlari,til undoshlari,bo'g'iz undoshi,jarangli va jarangsiz undoshlar.
<b>Maqsad va vazifalar:</b>	<p><b>Maqsadlar:</b></p> <p><i>Ta`limiy:</i> O'quvchilarning undosh tovuslilar yuzasidan olgan bilimlarini takrorlash asosida mustahkamlash;</p> <p><i>Tarbiyaviy:</i> O'quvchilarda tabiatga muhatbat uyg'otish, ularga ekologik va mehnatsevarlik tarbiyasini berish.</p> <p><i>Rivojlaniruvchi :</i> O'quvchilarda til hodisalarini qiyoslash asosidu xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantirish.,</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish;</li> <li>-ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish,kengaytirishga erishish;</li> <li>- mavzuga oid berilgan savollarni o'quvchilar tomonidan guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda berilgan topshiriqlarni qay darajada o'zlashtirganliklarini nazorat qilish;</li> <li>- ularning bilimini baholash.</li> </ul>

<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b>	<p><b>Metod:</b> suhbat, muammoli o'qitish.</p> <p><b>Usul:</b> induktiv ta'lif, guruhlar bilan ishlash;</p> <p><b>Shakl:</b> og'zaki va yozma bayon;</p> <p><b>Vosita:</b> «Ona tili» darsligi yoki elektron darslik, "Unli va undosh tovushlarning farqli belgilari" nomli ko'rgazma, "Undosh tovushlar" nomli ko'rgazma</p> <p><b>Nazorat:</b> savol-javob;</p> <p><b>Baholash:</b> 5 balli tizim asosida</p>
<b>O'quv jarayoniga oid kompetensiyalar</b>	<p><b>Tayanch kompetensiya elementlari:</b> axborot bilan ishlash komponentsiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiysi, Milliy va umummadaniy kompetensiya.</p> <p><b>Fanga oid kompetensiya elementlari:</b></p> <p><b>Nutqiy kompetensiya elementlari</b> (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;</li> <li>-gapda so'zlarni o'zaro bog'lanishi va ma'lum bir vazifani bajarishini bilib oladi.</li> </ul> <p><b>Lingvistik kompetensiya elementlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>-undosh tovushlarni izohlay oladi;</li> <li>-mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi;</li> <li>-jarangli va jarangsiz undoshlarini yozma nutqda o'rini ishlata oladi.</li> </ul>
<b>Kutiladigan natijalar:</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchi faolligini oshiradi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchi baholanadi. O'quvchilar tomonidan darsni mustaqil o'rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollargajavob berishga o'rgatadi, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantiradi.</p> <p><b>O'quvchi:</b> til va nutq, ularning bir-biriga bog'liqligi va ziddigi yuzasidan yangi bilimlarni egallaydi. Mustaqil ijodiy ishlashni o'rganadilar, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.</p>
<b>Kelgusi rejalar:</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p><b>O'quvchi:</b> Mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. O'rganilgan mavzu asosida qo'shimcha materiallar izlaydi, ularni o'rganadi. Do'stona muhitda, hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi.</p>

### Darsning borishi:

Darsni qiziqarli o'tkazish maqsadida "**Ohangdosh so'zlar**" o'yinini o'tkazish maqsadga muvofiq. O'yinda sinf o'quvchilari "**Topqirlar**" va "**Zukkolar**" kabi ikki guruhga bo'linadilar, ohangdosh so'zlar qatorini tez hamda ko'p topish bo'yicha

musobaqalashadilar. Bunda bir guruh birso'zni aytishi bilan ikkinchisi uning ohangdosh juftini topadj, Masalan,

### **Topqirlar guruhi**

*bong*

*bola*

Shu o'rinda ohangdosh so'zlar she'rda qofiya uchun asos bo'lishini, adabiyotshunoslikda ohangdosh so'zlar qofiyadosh so'zlar deb atalishini eslatib o'tiladi O'yinni sinf o'quvchilarining bilim darajasidan kelib chiqib adabiyot darsida o'rganilayotgan yoki ularning o'zлari yod olgan she'rillardagi ohangdosh qofiyadosh so`zlarni topish va talaffuzini tushuntirish shart qilib qo`yiladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasidagi ohangdosh so'zlarni aniqlash.

*Namuna: Serquyosh hur o 'Ikam, elga baxt, najot,*

*Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon.*

*Yashnagay to abad ilm-ufan, ijod,*

*Shuhratingporlasin toki bor jahon! (A.Oripov)*

She'rdagi ohangdosh so'zlar: *najot-ijod; mehribon-jahon* kabi.

"Ohangdosh so'zlar" o'yinidan so'ng o'qituvchi "Unli va undosh tovushlar qanday xususiyatlarga ko'ra farqlanadi?" degan savol bilan muammoli vaziyat yuzaga keltiradi. Muammoli vaziyat munozara, bahs, (ortishuvlar asosida hal qilinadi.O'quvchilarning javobi to'ldiriladi va ularga quyidagi jadvalni taqdim etiladi.

### **Unli va undosh tovushlarning farqli belgilari**

Farqlovchi belgilar	<b>Nutq tovushlari</b>	
	Unli tovushlar	Undosh tovushlar
Tarkibiga ko'ra	Sof ovozdan hosil bo'ladi.	Ovoz va shovqindan hosil bo'ladi
Hosil bo'lishiga ko'ra	Ularning hosil bo'lishida o'pkadan kelayotgan havo ma'lum to'siqqa uchraydi	Ularning hosil boiishida o'pkadan kelayotgan havo ma'lum to'siqqa uchraydi
Vazifasi (bo'g'in hosil qilishi va qilolmasligi)ga ko'ra	Bo'g'in qiluvchi hosil asosiy vosita	Yakka holda bo'g'in hosil qila olmaydi.

Shundan so'ng o'qituvchi "Undosh tovushlar" nomli ko'rgazma asosida mavzuga oid savol va topshiriqlarni bajartiradi. O'quvchilar o'z fikrlarining mantiqiy asosi sifatida 11-, 12-mashqlarni bajaradilar. Mazkur mashqlarni jadvallar tuzish va ularni toldirish tarzida bajartirish maqsadga muvofiq. Masalan, 11-mashq shartiga ko'ra o'quvchilar berilgan matndagi undosh tovushlarni talaffuz o'rniga ko'ra quyidagidek jadvalga joylashtiradilar:

<b>Lab undoshlari</b>	<i>h, p, m</i>
-----------------------	----------------

<b>Til undoshlari</b>	<i>l,d,s,sh,n,chj,y,q,g'</i>
<b>Bo'g'iz undoshi</b>	<i>h</i>

Yuqorida tavsiya etilgan jadvallarga asoslangan holda o'quvchilarga 13-, 14-mashqlar bajartiriladi. Mashqlarni bajartirishda sinf o'quvchilarini iqlidorli, yaxshi, o'rtacha o'zlashtiruvchi va o'zlashtirishi pastroq o'quvchilarga ajratgan tarzda yondashish hamda shunga muvofiq o'quv yukini qo'yish yaxshi samara beradi.

*15-mashqdagi* rasm asosida "*Mustaqillik bayramida*" nomli ijodiy matn tuzish uy vazifasi qilib beriladi.

# **Kompetensiya asosida tuzilgan**

**Yillik dars ishlanmani to'liq olishni istaysizmi?**

## **Bog'lanish uchun:**



**Tel: + 998907269514**



**E-Pochta: dars-ishlanma@mail.ru**



**Telegram: @Dars\_ishlanma**

**Word shaklda beriladi**